Аннотация: В статье изучены содержание и сущность специальных экономических зон, связанные с ними терминологические аспекты, тенденции развития инвестиционной деятельности специальных экономических зон в Узбекистане.

Ключевые слова: особая экономическая зона, пакет льгот, прямые инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная деятельность, политика регионального развития, экспортные зоны.

## KIRISH

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko'ra, investitsiyalar uchun global raqobat sharoitida mamlakat investitsion salohiyatini oshirish, investitsion muhiti jozibadorligi uzluksizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishda turli sinalgan va innovatsion vositalardan foydalanish orqali investitsiyalarni jalb etish tendensiyasi rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, savdo va iqtisodiy munosabatlarga investitsion faoliyatga o'zining imtiyozli tartiboti, ma'muriy tartibga solishning soddalashtirilganligi va birmuncha cheklanganligini bilan bevosita ta'sir etuvchi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faollikni oshirishda alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi kunda qator yirik xalqaro moliya institutlari hamda ilmiy tadqiqot muassalari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining

Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi – UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Develorment) xalqaro tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan "World Investment Rerort" hisobotida quyidagicha ta'kidlanadi: "Maxsus iqtisodiy zonalar ko'pchilik rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodiyotlarda keng qo'llaniladi. Ushbu geografik jihatdan chegaralangan hududlarni hukumatlar tomonidan moliyaviy va tartibga soluvchi imtiyozlar hamda infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlanishi orqali iqtisodiyotga investitsiyalar oqimi faollashadi. Bugungi kunda 147 ta davlatlarda 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, bu 5 yil avval 4000 ga yaqin bo'lgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligining oshib borish tendensiyasi jahon miqyosidagi sanoat siyosati yangi to'lqinining bir qismi va investitsiyalarning xalqaro mobilligi kuchayib borayotgan raqobatga javobdir [1].

XX asr o'rtalaridan boshlab iqtisodiyotning tayanch nuqtalaridan biriga aylanib borgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirishga dunyo miqyosida jiddiy e'tibor qaratildi. Bu borada dunyo davlatlari iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan hududlarini xorijiy investitsiyalar hisobiga rivojlantirish, ulardagi ishsizlik darajasini pasaytirish, sanoat ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilish evaziga rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni o'zida aks ettirgan yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish orqali "Hududiy rivojlantirish siyosati"ni muvaffaqiyatli olib borishdi [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Maxsus iqtisodiy zonalarning iqtisodiy mohiyati va investitsion faolligini oshirish borasida tadqiqotlar olib borgan Polsha Respublikasida joylashgan Pshevorsk ijtimoiy-iqtisodiy Oliy maktabi professori P. Yaroshning fikricha, maxsus iqtisodiy zona – bu undagi subyektlar faoliyatiga davlat aralashuvining tanlanma qisqartirilgan va tadbirkorlik faoliyati rag'batlantiriladigan hudud. Ya'ni davlat tomonidan boshqa hududlarga tatbiq etilmaydigan qonuniy imtiyoz va preferensiyalari amal qiladigan hududlardir [3]. Shuningdek, mazkur olimning tadqiqotlarida maxsus iqtisodiy zonalardagi erkin tadbirkorlik faoliyati mamlakatning boshqa hududlari, sohalari va tarmoqlarining investitsyaon faolligini, iqtisodiy tizimning liberallashuviga ijobiy ta'sir etishi alohida qayd etilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalarning milliy iqtisoliyotga ijobiy diffuziyasi borasidagi fikrlarni investitsion muhit jozibadorligining nazariy va metodologik jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan professor Sh. Mustafaqulovning ham ilmiy tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Uning fikricha, "erkin iqtisodiy hudud yaratish mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishning sinalgan va eng samarali qurolidir. Erkin iqtisodiy hudud – bu mamlakatning imiji ham. Erkin iqtisodiy hududlar, hatto yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatni liberallashuviga xizmat qiladi. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo'shimcha daromad keltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qayti beradi, jumladan, xorijiy investorlar bilan muloqot qilishga imkon beruvchi firmalararo kommunikatsiya yaratadi [4]".

Quyidagi rasmdan ko'rish mumkinki, maxsus iqtisodiy zonalar kirib kelishi kutilayotgan investorlar, shu jumladan, xorijiy investorlar uchun qulay investitsion shartlarni taklif etishi barobarida hudud va mamlakat investitsion jozibadorligiga ta'sir etadi. Maxsus iqtisodiy zonalardagi investitsiyaon faollikning oshishi milliy iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiya va diversifikatsiya bo'lishida, ichki bozorga integratsiya qilinishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.




1-rasm: Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati va investitsion faolligining iqtisodiyotga diffuzion ta'sir etishi

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

Rossiyalik iqtisodchi olim V. D. Adrianov: "Erkin iqtisodiy hududlar milliy hududning bir qismi bo'lib, iqtisodiy muammolar yechimini topishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi"[5], – deya ta'riflaydi.

V. G. Ignatov, V. I. Butovlarning fikricha, EIZlar – cheklangan hududlar bo'lib, ular dengiz portlari, havo chegarasidan iboratdir. Ularda milliy va xorijiy ishbilarmonlar uchun tashqi savdo, umumiy iqtisodiy va boshqa sohalarda qulay biznes muhiti yaratiladi [6].

Shuningdek, ushbu hududlarning jahon amaliyotidagi sinonim tushunchalaridan biri, maxsus iqtisodiy zona (MIZ)lar R. I. Zimenkov tomonidan quyidagicha ta'riflanadi: MIZ – bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi. Bu yerda milliy hamda chet ellik tadbirkorlar uchun alohida imtiyozli iqtisodiy rejim amal qiladi. Ularning vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va texnik muamollarni hal qilishda namoyon bo'ladi [7].

Ushbu yo'nalishni davom ettirgan I. R. Tazutdinov esa: "MIZ – bu davlatning alohida qismi bo'lib, uning hududida institutsional infratuzilma mavjud bo'lib, uning hududida tashqi dunyo bilan iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus huquqiy va ma'muriy rejim mavjud bo'ladi"[8], – deya ta'kidlaydi.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlarning fikricha, erkin iktisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi [9].

Maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar jalb etishni o'rgangan respublikamiz olimlaridan professor J. Karimqulovning ilmiy ishlarida ushbu sanoat zonalarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Ushbu sanoat hududlarining investitsion faolligini oshirishda ularda beriladigan moliyaviy imtiyozlarni "vaqt omili"dan Hindiston tajribasidan kelib chiqib, "hudud omili"ga o'tkazish taklif etilgan [10].

Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar va ularning investitsion faolligini rivojlantirish orqali hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish borasida kompleks ilmiy-tadqiqotlar olib borgan olimlardan H. Hamroyevning ta'kidlashicha, tashkil etiladigan hududlarga beriladigan imtiyozlar investorlar takliflari asosida qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Erkin iqtisodiy hududni "imtiyozli territoriya"ga aylantirish kerak emas [11]".

Shuningdek, A. A. Ostonaqulovning fikricha, erkin iqtisodiy zona – ... iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir [12].

S. S. Bozarovning ta’kidlashicha, “Erkin iqtisodiy zona – davlatning iqtisodiy va jo‘g‘rofiy jihatdan qulay hududida tashkil etiladigan, mamlakat iqtisodiyotini kompleks tarzda rivojlantiradigan va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta’minlaydigan, alohida imtiyozlar majmuyini o‘z ichiga olgan rejimga ega bo‘lgan hamda chet el elementi bilan murakkablashgan turli xil huquqiy munosabatlar amalga oshiriladigan maxsus ajratilgan hudud”dir [13].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maxsus iqtisodiy zonalar faqatgina mamlakat ichkarisida emas, balki mamlakatga nisbatan tashqarida, ya’ni anklav tarzda ham joylashishi mumkin. Bu boradagi mualliflik ta’rifi quyidagi 2-rasmda tasvirlangan tuzilmaviy modelda keltirilgan:




2-rasm: Maxsus iqtisodiy zonalarning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi tuzilmaviy model

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

O‘zbekistonga qarashli bo‘lgan Farg‘ona viloyati tarkibiga kiritilgan So‘x tumani Qirg‘iz Respublikasi hududida joylashgan. Agar ushbu yerlarda maxsus iqtisodiy zona tashkil etilsa, O‘zbekiston uchun eksklav maxsus iqtisodiy zona bo‘lib, Qirg‘iz Respublikasi uchun anklav hudud hisoblanadi. Shuningdek, mualliflik ta’rifida tarif va notarif yo‘nalishdagi imtiyozlar deyilganda, fiskal yo‘nalishdagi va mahsulotlarni ishlab chiqarish davomida qo‘llaniluvchi notarif (litsenziya, standartlashtirish, sertifikatsiya qilish) yo‘nalishdagi ma’muriy imtiyozlar nazarda tutilgan (bu borada dissertatsiya ishining uchinchi bobida kengroq to‘xtalib o‘tilgan).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyekti bo‘yicha so‘rovnomalar va dala tadqiqotlarini olib borish, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalar sanoat ishlab chiqarishda irnvestitsiyalarni rag‘batlantirish vositasi sifatida foydlanilmoqda. Shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarda “yuqori riskli va yuqori daromadli” vosita sifatida maxsus iqtisodiy zonalarning global faoliyati natijalari shuni ko‘rsatatdiki, Sharqiy Osiyo davlatlarida investitsion jarayonlarga ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa, Afrika davlatlarida bu borada natijalar kutilganidek emas. Maxsus iqtisodiy zonalar, ulardagi investitsion faollikning rivojlanish bosqichlari borasidagi yuqoridagi tasnifda ahamiyatli jihatlardan biri shuki, maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ta’sirida shakllangan va maxsus iqtisodiy zonalarning shakli o‘zgarsa-da, ularning rivojlanishi uchun investitsion faollik muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va rivojlantirishdan asosiy maqsad nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi, balki milliy iqtisodiyotni xalqaro bozorga integratsiyalashgan holda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish, zamonaviy yuqori texnologiyali, import o‘rnini bosuvchi va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni malakali mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va quvvatlarni oshirish ham hisoblanadi.

Iqtisodiyotda maxsus zonalarning mavjudligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, ichki bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ishlanmalar, zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, bandlikni oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish, valyuta tushumini ko‘paytirish, mahalliy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, maxsus iqtisodiy zonalarning ko‘plab turlari mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi mumkin: erkin iqtisodiy zonalar; maxsus ilmiy-texnologik zonalar; turistik-rekreatsion zonalar; erkin savdo zonalari; maxsus sanoat zonalari.




*Izoh: “Qoraqalpoq-agro” EIZ faoliyatini tugatish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.06.2022-yildagi PF-153-sonli Farmoniga asosan ma’qullangan.

4-rasm: O‘zbekistonda tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalar

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarning alohida bir turi sifatida 22 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilgan. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika sohasini rivojlantirish, ikki-

tadan turizm va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Shuningdek, 2019 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari, 200 dan ortiq kichik sanoat zonalari mavjud. Bundan tashqari, innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish maqsadida respublikamiz hududida texnoparklar faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 313-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2020-2023-yillarda respublika hududlarida Yoshlar texnoparklarini bosqichma-bosqich tashkil etish reja-jadvaliga [14] muvofiq, 2023-yilga qadar hududlarda maxsus ilmiy-texnologik zonalar tashkil etiladi.

Mazkur tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda 2020-yil 1-oktyabr holatiga 2,167 mlrd dollarlik 375 ta loyiha foydalanishga topshirilgan, shu jumladan, 737,7 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan va 30,6 mingta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Amalga oshirilgan loyihalar doirasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, asosan, strategik hamkor davlatlardan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Singapur, Shveysariya va Buyuk Britaniya davlatlaridan kiritilgan. Foydalanishga topshirilgan investitsiya loyihalari asosan muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlangan, mahsulotlarni eksportga yo'naltirishga transport-logistika xizmatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan "Angren" EIZ (qiymati 723,0 mln dollarlik 69 ta loyiha), "Urgut" EIZ (qiymati 273,4 mln dollarlik 50 ta loyiha), "Buxoro-agro" EIZ (qiymati 245,9 mln dollarlik 69 ta loyiha), "Navoiy" EIZlarda (qiymati 210,4 mln dollarlik 42 ta loyiha) amalga oshirilgan. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zona direksiyalari tomonidan umumiy qiymati 1,8 mlrd dollarlik 174 ta istiqbolli investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini jalb qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida esa erkin iqtisodiy zonalarda qiymati 335,1 mln dollarlik 58 ta loyihalar amalga oshirilgan va ishtirokchilari tomonidan 8,5 trln so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, shundan 175,1 mln dollarlik mahsulotlari eksportga yo'naltirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar ko'rsatmoqdaki, ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning respublika sanoatidagi ulushi 2,5 foizni, eksportdagi ulushi 1,2 foizni tashkil etmoqda [15].

Dissertatsiya tadqiqoti obyekti hisoblangan "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi Samarqand viloyati, Urgut tumanida tashkil etilgan bo'lib, viloyatda sanoat sohasidagi ilk maxsus iqtisodiy zona hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy zona O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli Farmoniga asosan 816 ga yer maydonida tashkil etilgan. Hozirgi kunda ushbu iqtisodiy zonaning hududi 1262 ga yer maydonini tashkil etadi. Hudud tashkil etilganidan buyon, 1 649,3 mln. dollarning investitsiyalar o'zlashtirilgan. Ushbu tahliliy ma'lumotlardan ko'rinadiki, Samarqand viloyatida joylashgan "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining investitsion faolligi so'ngi ikki yilda keskin rivojlangan. Ya'ni mazkur iqtisodiy zonaga 2017-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 58 ta loyiha bo'yicha 188,7 mln. dollarlik investitsiyalar kiritilgan bo'lsa, 2020-yilda yilga ushbu ko'rsatkich 113,3 foizga o'sib, ushbu yilda mazkur iqtisodiy zonadagi jami 84 ta loyihaga 402,6 mln. dollarlik investitsiyalar kiritilgan.




5-rasm: "Urgut" erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari tarkibi [16]

5-rasmga ko'ra, kiritilgan investitsiyalarning 45,9 foizi bank kreditlari, 34,1 foizi investorlarning o'z mablag'lari, kiritilgan investitsiyalarning deyarli 20 foizi xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, 2021-yilda ushbu iqtisodiy zonaga jami 96 ta loyiha bo'yicha umumiy qiymati 602,2 mln. dollarlik investitsiyalar jalb etilgan.

Kiritilgan investitsiyalarning 262,0 mln. dollari bank kreditlari (43,5 foiz), 204,2 mln. dollari investorlarning o'z mablag'lari (33,7 foiz), 135,9 mln. dollari xorijiy investitsiyalar (22,5 foiz)ni tashkil etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish tarkibida o'tgan 5 yil davomida o'z mablag'lari va xorijiy investitsiyalarning ulushi o'sib borganligi mazkur iqtisodiy zona joylashgan viloyat va tumanning investitsion jozibadorligi va investitsion faolligining rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni 2017-yilda tashkil etilgan ushbu iqtisodiy zonaga kiritilgan investitsiyalarning jami ulushida dastlabki yilda 58,8 mln. dollarni yoki jami moliyalashtirish tarkibining 31,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib mazkur ko'rsatkich deyarli 2,5 barobarga ortib, investorlarning o'z mablag'lari 204,2 mln. dollarni yoki jami moliyalashtirish tartibining 34 foizini tashkil etganini ko'ramiz. Qolaversa, jami kiritilgan investitsiyalar tarikbiga xorijiy investitsiyalar iqtisodiy zona tashkil etilishining dastlabki yilida 8 mln. dollardan iborat bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 135,9 mln. dollarni tashkil etgan yoki moliyalashtirish tarkibida xorijiy investitsiyalarni 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 16 barobardan ortiqqa oshganligi xorijiy investorlarning iqtisodiy zona investitsion faolligini ta'minlashdagi ishtirokining tobora kengayib borayotganligini anglatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maxsus iqtisodiy zonalarning tarixiy rivojlanish evolyutsiyasidan ma'lumki, ushbu hududlar mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlanishi past bo'lgan hududlarga investitsiyalarni berilgan imtiyozlar orqali qulay investitsiya muhitini shakllantirish orqali jalb etishga alohida hamiyat berilganligini ko'ramiz. Ya'ni tuzilgan har bir hududning o'ziga xos bo'lgan investitsion faoliyati yo'lga qo'yiladi. Maxsus iqtisodiy zonalarning rivojlanish jarayonlariga To'rtinchi sanoat inqilobi ta'siri tufayli yuqori tehnologiyalarga va raqamli vositalarga asoslangan erkin savdo zonalarning aniq moddiy hudud bilan chegralanishini o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sababli muallif ta'rifida maxsus iqtisodiy zonalarni "tuzilma" sifatida ham aniqlashtirildi.

Erkin iqtisodiy zonada amalga oshirilgan investitsiya loyihalari umumiy qiymatida xorijiy investitsiyalarning ulushi 14,7 foizni, moliyalashtirish manbalarida 15,09 foizni, amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining ulushi 17,2 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, investitsiya loyihalarning umumiy qiymatida atigi 2,6 foizni tashkil etganligining guvohi bo'lamiz. Ushbu tahliliy ko'rsatkichlar tadqiqot obyekti hisoblangan "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining investitsion faolligida xorijiy investorlarning rolini va ulashini oshirish, qulay investitsiya muhitini yanada yaxshilash, bu borada erkin iqtisodiy zona direksiyasining imkoniyat va vakolatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi – UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) xalqaro tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan "World Investment Report" hisobotidan. Manba: https://worldinvestmentreport.unctad.org/world-investment-report-2019/chapter-4-special-economic-zones/
2. Umipzoqov J. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020-yil. ISSN: 2181-1016. https://www.interfinance.uz/en/arxiv/264-2020-4
3. Ярош П. Управление развитием территориально-хозяйственных зон в польше: теория, методология, практика. Монография. – Польша. 2018.
4. Mustafaqulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. – 326 b.
5. Адрианов В. Д. Специальные экономические зоны. Журнал «ЭКО», 1997, ( № 3), С: 42.
6. Игнатов В. Г., Бутов В. И. Свободные экономические зоны. – М.: Ось-89, 1997.
7. Зименков Р. И. Свободные экономические зоны. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.
8. Тазутдинов И. Р. Особые экономические зоны в системе обеспечения экономической безопасности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Федеральное государственное бюджетное учреждение науки «Институт экономики Российской академии наук» Москва – 2015. 152 с.
9. Vaxabov A. V., Xajibakieyv Sh. X., Muminov N. G. Xopijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. 180-bet
10. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantipish yo'nalishlari. 08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit» Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 244 b
11. Xamroyev H. P. Zonal siyosat: metodologiya, xopijiy tajpiba va qo'llash yo'nalishlari. – T., 2008. – 8-b.
12. Ostonoqulov A. A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017.
13. Bozarov S. S. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.
14. O'zbekiston Respublikasi Vaziplar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 313-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4823544
15. O'zbekiston Resupblikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida.
16. "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.